



**TOSHKENT VILOYATINING  
CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI**
*(2018 yil yanvar-dekabr)*

Viloyat bo'yicha joriy yilning yanvar-dekabr oylarida chakana savdo tovar aylanmasi 13 883,7 mlrd. so'mni tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 4,6 %ga o'sdi. Shu jumladan, yirik korxonalarning tovar aylanmasi 1 669,0 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 7,7 %), kichik tadbirkorlik sub`ektlarining tovar aylanmasi 12 214,7 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 4,2 %), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi 1 545,9 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 1,8 %) tashkil etdi.


**Shahar va tumanlar kesimida chakana savdo tovar aylanmasi hajmi  
(mlrd. so'm)**


2017 yilning shu davriga nisbatan viloyatning barcha hududlarida chakana savdo tovar aylanmasining o'sish sur'atlari kuzatilib, nisbatan yuqori o'sish sur'atlari Parkent, Oqqo'rg'on, Bekobod shahri va Bo'ka tumanlarida qayd etildi.

**Jami viloyat Chakana savdo aylanmasida  
shahar va tumanlarning ulushi, (%)**




**Chakana savdo tovar aylanmasining o'sish sur'atlari, (%)**




Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarning tovar aylanmasi hajmi o'tgan yilning mos davriga nisbatan 7,7 %ga o'sdi va 1 669,0 mlrd. so'mni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining 12,0 % ulushiga to'g'ri keladi.

Kichik tadbirkorlik sub`ektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi statistik hisob-kitoblarga ko`ra, 12 214,7 mld. so`mni tashkil etib, 2017 yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan 4,2 %ga o`sdi. Viloyat miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 88,0 %ga teng kelmoqda.

### Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibi, (%)



### Chakana savdo aylanmasida yirik korxonalar va kichik tadbirkorlikning ulushi, (%)



Tahliliy natijalarga ko'ra, chakana savdo tovar aylanmasida kichik tadbirkorlik sub`ektlarining ulushi bo'yicha Nurafshon shahri (99,7 %), Oqqo`rg'on tumani (98,4 %), Bekobod tumani (98,3 %), Quyichirchiq tumani (98,0 %), Ohangaron tumani (97,0 %), Yangiyo`l shahri (96,7 %), Parkent tumani (96,1%), Piskent tumani (95,6 %), Bo`ka tumani (95,4 %) va Yangiyo`l tumani (95,0 %) yetakchilik qilmoqda.


Chakana tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining ulushi 12,0 % ni tashkil etib, eng katta ulush Chinoz tumani (41,6 %), Yuqorichirchiq tumani (26,1 %), Toshkent tumani (21,3 %), O`rtachirchiq tumani (20,6 %), Chirchiq shahri (20,5 %), Ohangaron shahri (19,0 %), Bekobod shahri (18,4 %), Qibray (16,7 %) tumanlarida kuzatilgan.

#### **Kichik tadbirkorlik va yirik korxonalarining chakana savdo tovar aylanmasidagi hajmi**

	Yirik korxonalar (mln.so`m)	O`tgan yilning shu davriga nisbatan, %da	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik (mln.so`m)	O`tgan yilning shu davriga nisbatan, %da
<b>Toshkent viloyati</b>	<b>1 668 996,6</b>	<b>107,7</b>	<b>12 214 735,8</b>	<b>104,2</b>
Nurafshon sh.	853,5	79,0	288 352,0	105,1
Olmaliq sh.	176 737,7	103,5	1 209 602,1	105,5
Angren sh.	42 225,0	82,6	730 499,8	107,2
Bekobod sh.	145 477,0	273,5	646 441,0	93,5
Ohangaron sh.	54 467,1	85,9	232 229,6	110,7
Chirchiq sh.	162 423,2	101,1	631 791,2	106,6
Yangiyo`l sh.	25 560,3	61,6	749 144,2	104,5
<i>tumanlar:</i>				
Oqqo`rg'on	10 231,6	147,3	619 649,5	106,7
Ohangaron	5 049,0	62,5	164 129,4	103,7
Bekobod	5 861,3	144,1	342 912,5	102,1
Bo`stonliq	52 306,0	71,8	592 138,8	108,3
Bo`ka	22 668,5	108,1	467 701,2	106,4
Quyichirchiq	4 955,6	99,8	237 236,8	105,4

	Yirik korxonalar (mln.so`m)	O`tgan yilning shu davriga nisbatan, %da	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik (mln.so`m)	O`tgan yilning shu davriga nisbatan, %da
Zangiota	94 125,7	60,8	1 539 585,9	109,9
Yuqorichirchiq	122 907,8	92,1	348 887,4	108,5
Qibray	151 224,8	83,3	751 931,2	107,7
Parkent	21 921,7	104,6	539 792,3	108,5
Piskent	13 863,7	89,9	302 924,4	105,9
O`rtachirchiq	47 050,8	62,9	181 517,0	120,3
Chinoz	312 803,8	192,5	439 441,1	80,5
Yangiyo`l	31 254,7	81,8	589 049,7	104,0
Toshkent	165 027,6	151,2	609 778,8	93,5

#### Hududlarda kichik tadbirkorlik sub`ektlarining chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi, (%)



2018 yil yanvar-dekabr oylarida chakana savdo tovar aylanmasi viloyat bo`yicha aholi jon boshiga 4 820,9 ming so`mni tashkil qilib, o`tgan yilning shu davriga nisbatan 3,4 %ga ko`paygan. Aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi 2018 yilning yanvar-dekabr oylarida o`tgan yilga nisbatan viloyatning deyarli


barcha hududlarida o'sish ko'rsatkichlarini tashkil etib, eng yuqori ko'rsatkilar Yangiyo'l shahri (13 020,2 ming.so'm), Olmaliq shahri (10 805,5 ming. so'm) va Bekobod shahri (8 451,6 ming.so'm) hissasiga to'g'ri keladi.

Shuningdek, aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi bo'yicha eng kam ko'rsatkichlar O'rtachirchiq tumani (1 569,8 ming.so'm), Ohangaron tumani (1 807,5 ming.so'm) va Bekobod (2 269,2 ming so'm) tumanida qayd etilgan. Ushbu ko'rsatkich viloyat hududlari kesimida quyidagicha ko`rinish olgan:

### **Aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi**

	Ming so'm	O'tgan yilning shu davriga nisbatan, %da
<b>Toshkent viloyati</b>	<b>4 820,9</b>	<b>103,4</b>
Nurafshon sh.	6 025,1	103,9
Olmaliq sh.	10 805,5	103,9
Angren sh.	4 183,7	104,1
Bekobod sh.	8 451,6	105,0
Ohangaron sh.	7 811,9	104,1
Chirchiq sh.	5 117,4	104,8
Yangiyo'l sh.	13 020,2	101,6
<b>tumanlar:</b>		
Oqqo'rg'on	6 139,2	105,9
Ohangaron	1 807,5	100,4
Bekobod	2 269,2	101,2
Bo'stonliq	3 872,9	103,1
Bo'ka	3 999,8	105,0
Quyichirchiq	2 295,7	104,2
Zangiota	8 421,2	104,1
Yuqorichirchiq	3 574,2	102,2
Qibray	4 598,6	101,4
Parkent	3 727,4	106,7
Piskent	3 212,9	103,9
O'rtachirchiq	1 569,8	99,6

	Ming so`m	O`tgan yilning shu davriga nisbatan, %da
Chinoz	5 764,3	104,8
Yangiyo`l	3 024,4	101,0
Toshkent	4 389,8	100,7



Jumladan, 2018 yilning yanvar-dekabr oylari mobaynida chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida ovqatlanish tashkilotlarining savdo aylanmasi 2,7 %ni tashkil etib, 378,1 mlrd. so`mga yetdi yoki o`tgan yilning mos davriga nisbatan 2,9 % kamaygan. Bunda jami savdo aylanmasining 78,3 % ulushi kichik tadbirkorlik sub`ektlari ulushiga to`g`ri kelmoqda.


### **TOSHKENT VILOYATINING ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI**

(2018 yil yanvar-dekabr)

Yil boshidan viloyat bo`yicha ulgurji savdo tovar aylanmasi 5 999,5 mlrd. so`mni tashkil qildi va 2017 yilning shu davriga nisbatan 11,1 %ga o`sdi.

Ulgurji savdo tovar aylanmasida eng yuqori hajm yirik korxonalarga to`g`ri kelib, mazkur hajm 2018 yil yanvar-dekabr oylari yakunlariga ko`ra, 3 784,5 mlrd. so`mni tashkil etib, o`tgan yilning shu davriga nisbatan 11,8 %ga o`sdi. Ushbu sektorning umumiy ulgurji savdo aylanmasidagi ulushi esa 63,1 %ni tashkil qilmoqda. Bu ko`rsatkichni tuman va shaharlar bilan taqqoslaganda, O`rtachirchiq tumanida (98,3%), Chinoz tumanida (90,4%) va Qibray (88,3%) tumanlarida yuqori bo`lgan.

**Yirik va kichik korxonalarning  
ulgurji savdo tovar aylanmasidagi ulushi, (%)**




Ulgurji savdo aylanmasining tarkibida kichik tadbirkorlik sub`ektlari aylanmasining ulushi 36,9% ni tashkil etdi, kichik korxonalarning ulushi katta bo`lgan Ohangaron shahar (100,0%), Yangiyo'l shahar (99,9%) va Parkent (99,8%) tumanlarida kuzatildi.

**Shahar va tumanlar kesimida ulgurji savdo hajmi**

	Jami (mlrd.so`m)	O`tgan yilning shu davriga nisbatan, %da	Yirik korxonalar (mlrd.so`m)	O`tgan yilning shu davriga nisbatan, %da	Kichik korxonalar (mlrd.so`m)	O`tgan yilning shu davriga nisbatan, %da
<b>Toshkent viloyati</b>	<b>5 999,5</b>	<b>111,1</b>	<b>3 784,5</b>	<b>111,8</b>	<b>2 215,1</b>	<b>109,9</b>
Nurafshon sh.	236,9	877,9	208,5	937,9M	28,4	106,2
Olmaliq sh.	148,6	110,7	62,1	116,1	86,5	107,2
Angren sh.	29,6	100,3	0,3	8,8	29,3	111,7
Bekobod sh.	53,3	109,0	1,7	163,9	51,6	107,9
Ohangaron sh.	29,8	109,2	0,0	-	29,8	109,2
Chirchiq sh.	105,9	103,0	12,2	72,6	93,6	109,0
Yangiyo`l sh.	102,5	112,8	0,1	-	99,9	112,6
<i>tumanlar:</i>						
Oqqo`rg`on	4,2	108,2	0,1	81,8	4,1	109,5
Ohangaron	29,9	108,6	0,5	87,4	29,3	109,0
Bekobod	17,1	150,8	4,5	32,8M	12,6	112,7
Bo`stonliq	62,8	86,9	1,2	8,5	61,6	106,0
Bo`ka	18,0	113,4	0,1	159,3	18,0	113,3
Quyichirchiq	20,0	108,3	0,3	220,5	19,7	107,5
Zangiota	650,6	99,0	67,3	52,9	583,3	110,1
Yuqorichirchiq	80,6	108,6	1,6	102,9	79,1	108,7
Qibray	1 486,2	105,3	1 312,6	104,5	173,6	111,4
Parkent	66,9	110,1	0,1	80,3	66,8	110,1
Piskent	22,7	112,9	0,5	233,8	22,2	111,6
O`rtachirchiq	1 620,7	117,7	1 593,4	117,9	27,3	106,2
Chinoz	542,0	107,2	490,2	107,4	51,8	105,4
Yangiyo`l	100,3	96,0	0,6	3,9	99,7	112,7
Toshkent	571,0	98,4	26,5	30,9	544,5	110,1

**Shahar va tumanlar kesimida ulgurji savdo tovar aylanmasining  
o'tgan yilga nisbatan o'zgarish sur'atlari, (%)**



Ulgurji tovar aylanmasida o'tgan yilning shu davriga nisbatan eng quyi o'sish sur'ati Bo'stonliq (86,9 %) tumanida qayd etildi.

**Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo  
statistikasi bo`limi**  
Tel.:71-230-86-59